

**BO'LAJAK O'QITUVCHINI TA'LIM JARAYONIDA KASBIY  
OMILKORLIKGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**  
**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ  
ПРОЦЕССЕ**

*D.Q.Oxunova- FDU o'qituvchi*  
[oxunova2302@gmail.com](mailto:oxunova2302@gmail.com) *tel:+998901602032*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning amaliy jihatdan o'z malakalarini oshirishni pedagogik tomonlari, pedagogik mahoratni oshirishning zamonaviy talablari ochib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье раскрываются педагогические аспекты повышения квалификации будущих учителей с практической точки зрения, современные требования к повышению педагогического мастерства.

**Kalit so'zlar:** kasbiy mahorat, kasbiy omilkorlik, o'z-o'zini rivojlantirish, qobiliyat, metodologik bilimlar, ijodkorlik, kreativlik.

**Ключевые слова:** профессиональные навыки, профессиональная эффективность, саморазвитие, способности, методические знания, креативность, креативность.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini yuqori saviyadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega, metodologiya va pedagogika sohasida fundamental bilimlarni chuqur biladigan, ta'lim jarayonida pedagogik muammolarni tizimli ravishda olib boruvchi mahoratli va omilkor o'qituvchilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida asosiy e'tibor bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy pedagogik faoiyatning o'ziga xos usullarini shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan. O'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, avvalo, shaxsning o'z individual xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanish va individual ishlay olish qobiliyatining qanday shakllanganligi bilan bog'liq. Bu usul oliy o'quv yurtida o'quv va amaliy mashg'ulotlar jarayonida shakllantiriladi va kelajakda ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat bo'ladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlashda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi kerak.

Yuksak malakali o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantirish yo'llari har xil bo'lishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega bo'lishlik kasbiy- pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori

hisoblanib, o'qituvchining kasbiga nisbatan shaxsiy tavsifnomasi hisoblanadi. Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati o'qituvchi kadrlarning kasb mahorati va savodxonligiga bevosita bog'liq. Shu o'rinda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi:

“Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak”. Bu so'zlarda ulkan ma'no bor. Negaki barcha rivojlangan jamiyatda bo'lgani kabi, o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim muassasasida - ta'lim jarayonida va ish faoliyatida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchi talabalar o'z mahoratlarini ikki tomonlama - amaliyotda hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayonida shakllantiradilar. Bo'lajak o'qituvchilar ko'proq amaliy jihatdan o'z malakalarini oshirishni xohlaydilar. Chunki ish faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan muammolar ko'p. Bo'lajak o'qituvchilarga avvalo, kasb mahorati va uni qanday qilib shakllantirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki, barcha sohalarida bo'lganidek, kasb mahorati ham o'qituvchida yillar davomida shakllanib takomillashadi. Shu narsa alohida e'tiborga loyiqlik, o'qituvchining kasbiy mahorati, amaliy va uslubiy tajribaga ega bo'lishi uchun asosiy zamin ish faoliyati jarayonida shakllanadi. Chunki kasb mahorati o'ta murakkab va milliy xususiyatga ega bo'lgan jarayon bo'lgani bois, uni egallash, yuqorida ta'kidlanganidek, o'qituvchining uzoq yillar samarali izlanishlari, ijodkorlik mehnati evaziga ro'yobga chiqadi. Ammo pedagogik mahorat sirlarining ilmiy va amaliy negizi o'z vaqtida berilmas ekan. uni oliy ta'lim muassasasidan keyingi kasbiy faoliyati jarayonida kashf etish har doim ham o'z samarasini bermaydi. Har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ilg'or turmush tarziga moslashgan, ta'lim va kasb - hunar dasturlarini hamda pedagogik va axborot texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan doimo xabardor, ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, pedagogik-psixologik jihatdan bilimlarga ega boigan, davlat va oila oldida javobgarlikni his etadigan fuqarolarni tarbiyalovchi o'qituvchida yuksak nazariy va metodologik tayyorgarlik bo'lishi lozim. Hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari hamda fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zlashtirgan, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni ta'lim tizimiga tatbiq eta oladigan o'qituvchidan yangicha kasb mahorati talab qilinadi.

O'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun, avvalo o'zining individual kasbiy xususiyatlaridan yuqori saviyada foydalanishi va individual ishlay olish qobiliyatini mukammal shakllantirib borishi lozim. Bu usul oliy ta'lim muassasasi faoliyatida o'quv va amaliy mashg'ulotlari jarayonida shakllantiriladi va kelajakda muvaffaqiyatni ta'minlovchi individual, o'ziga xos usullar tizimidan iborat boiadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislikni tayyorlashda kasbiy mahorat va omilkorlikni shakllantirish g'oyasi yetakchi o'rinda bo'lishi kerak. Yuqori malakali

kasbiy mahoratni shakllantirish yoilari har xil boiishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbiy mahoratining shakllantirilganligini bildiruvchi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalai yig'indisiga, pedagogik muomala madaniyatiga ega boiishi kasbiy - pedagogik omilkorlikning asosiy poydevori hisoblanib, o'qituvchining kasbiy mahoratini namoyon qiluvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida yuksak mahoratli omilkor o'qituvchini shakllantirish uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- o'z mutaxassisligi bo'yicha bazaviy puxta tayyorgarlik (kasbiy va pedagogik-psixologik bilimlar);
- metodologik bilimlarni egallash madaniyati;
- pedagogik ijodkorlik va kreativlik.

Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassis lozim bo'lgan kasbiy sifatning murakkab to'plamini an'anaviy ta'lim jarayonida qisqa fursatda egallashi lozim. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida barcha ijobiy xususiyatlar amaldagi ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etib borgan holda ular yangi zamonaviy bilimlar bilan to'ldirilib borilsa, unga ratsional yondashuvlar joriy etilgan integral bilimlar tizimi birini to'ldirib qoilanilganda shakllantirilishi mumkin.

Hulosa qilib aytganda o'qituvchining ta'lim jarayoniga tayyorgarligi "pedagogik omilkorlik" kategoriyasini tushunishning muhim qismi hisoblanadi va u pedagogik voqelikni idrok etish va saqlash vazifalarini bajaruvchi pedagogik madaniyatning mohiyatini aks ettiradi. Har bir bo'ljak oliy ma'lumotli mutaxassis-o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatining ixtisosligi va xususiyatidan qat'iy nazar fundamental bilimlarga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega boiishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Охунова, Д. К., & Шююсупова, О. А. (2016). PEDAGOGICAL BASES OF HARMONIOUS EDUCATION OF STUDENTS. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 42-45.
2. Oxunova, D. (2022). O 'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Academic research in educational sciences, 3(2), 870-876.
3. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. Miasto Przyszłości, 29, 6-7.
4. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. Miasto Przyszłości, 29, 1-2.
5. Охунова, Д. К., & Шююсупова, О. А. (2016). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГАРМОНИЧНОГО ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНТОВ. Ученый XXI века, 45.



6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг қурилмаларидан агфу-этан блоки қурилмасига “қуруқ газ” узатишда газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш. *Science and Education*, 1(3), 212-216.
7. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2023). TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 183-187.
8. Madaminovich, P. K. (2023). TECHNOLOGICAL CALCULATIONS FOR THE PRODUCTION OF LIQUID CHLORINE CALCIUM DEFOLIANT. *Journal of Modern Educational Achievements*, 5(5), 363-373.
9. Madaminovich, P. X., & Hamroqulovich, M. M. (2022). PROCESSING OF FISH AND FISH PRODUCTS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 4, 212-215.
10. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2022, April). TARKIBIDA KARBAMID, KALSIYNING XLORAT VA XLORIDLARI TUTGAN SUVLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIKNI O'RGANISH. In *E Conference Zone* (pp. 153-156).
11. Polvonov, X. (2022). PRODUCTION OF LIQUID CALCIUM CHLORATECHLORIDE DEFOLIANT AND ABOUT THIS. *Scienceweb academic papers collection*.